

Date: 1st November-2025

TEMIR YO‘L TRANSPORTINI ISHLATISH

Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

Annotatsiya: Temir yo‘l transporti yuk va yo‘lovchi tashishning samarali vositasi sifatida iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ilmiy maqolada temir yo‘l transporti hamda uni ishlatish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, temir yo‘l, Germaniya, yaponiya, transport, raqobat, tizim.

Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishida, vertikal integratsiyalashgan tizimlarning yuqori sur‘atlarda o‘shishida ko‘p jihatdan transport faoliyati o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida transportning YaIMdagi ulushi 4-9 foizni, aholi bandligida esa 3-7 foizni tashkil etadi». Kuchli raqobat sababli temir yo‘l tizimi boshqa transport turlari, xususan, avtomobil va havo yo‘llari tarmog‘i bilan raqobatga kirishmoqda. Bir tomondan, temir yo‘l transport tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini, ikkinchi tomondan mamlakatning xavfsizlik darajasini aks ettiradi.

Zamon talablari asosida temir yo‘l transport tizimini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish, mahsulotning yakuniy qiymatida logistika xarajatlarini kamaytirish va mamlakatning tranzit hamda transport-logistika salohiyatidan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Temir yo‘l transporti sohasida rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan, Germaniya, Yaponiya, Xitoy va Fransiya kabi mamlakatlar misolida ko‘rish mumkinki, samarali transport tizimini yaratish uchun raqamlashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xususiy sektorni jalb etish muhim omil hisoblanadi. Germaniyada “Deutsche Bahn” kompaniyasi davlat ishtirokida ishlovchi, lekin mustaqil faoliyat yurituvchi korxona sifatida shakllantirilgan.

Bu model infratuzilma va tashuv faoliyatining ajratilgan tizimi asosida ishlaydi, bu esa raqobatni kuchaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi. Yaponiyada temir yo‘l kompaniyalari xususiylashtirilgan bo‘lib, yuqori tezlikdagi poyezdlar (“Shinkansen”) va qat’iy jadval asosida yuradigan xizmatlar raqamlashtirish orqali boshqariladi. Bu tizim transport ishonchliligi va xavfsizligini oshiradi. Xitoy esa temir yo‘l transportini rivojlantirishda davlat investitsiyalariga tayanib, keng miqyosli infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqda. Xitoyning yuqori tezlikdagi temir yo‘l tarmog‘i eng yirik tizimlardan biri bo‘lib, mamlakat ichki iqtisodiy integratsiyasiga xizmat qilmoqda. Fransiya esa “SNCF” kompaniyasi transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan birga, yashil texnologiyalarni keng joriy etmoqda. Bu orqali uglerod izi kamaytirilib, ekologik barqarorlik ta‘minlanmoqda. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, temir yo‘l transportining barqaror rivojlanishi uchun davlat siyosati, texnologik



Date: 1st November-2025



innovatsiyalar, menejment tizimini isloh qilish va xususiy sektor bilan hamkorlik muhim omillardan hisoblanadi. O'zbekiston uchun bu tajribalar yo'l xaritasi sifatida xizmat qilishi, milliy transport tizimini transformatsiya qilishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun «yashil koridorlar» hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarning izchil va samarali bajarilishi temir yo'l transportida yuk va yo'lovchi tashish faoliyati samaradorligiga baho beruvchi indikator-ko'rsatkichlarini aniqlash, tarmoqni yanada rivojlantirishning strategik maqsadlari, tizimning yagona texnologik jarayoni hamda tashkiliy-iqtisodiy konsepsiyasini joriy etilishi ta'sirini asoslash, temir yo'l transportining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi imkoniyat va zaxiralarni ochib berish, tarmoq iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish lozim. So'nggi yillarda qabul qilingan quyidagi farmon va qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son, 2019 yil 1 fevraldagi «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PF-5647-son Farmonlari, 2017 yil 2 dekabrda «2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3422-son qarori, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish lozim. 2015 – 2019 yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni tizimli o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiyalashtirish choralari dasturiga muvofiq, ushbu loyihaning moliyaviy manbalari aniqlandi: bunga "O'ztemiryo'lmashta'mir" unitar korxonasining 66,1 million dollar miqdoridagi o'z mablag'lari sarflanadi.

Temir yo'l transportining rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki mahsulotning yakuniy narxi tarkibidagi transport xarajatlari va o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlash imkoniyati mahalliy korxonalarning muhim raqobatbardoshlik omili hisoblanadi.

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish masalasi bugungi kunda transport xizmati sohasida rivojlanib borayotgan xizmatlardan biri bo'lib, mamlaktimizdagi aholining katta qismi mazkur Temir yo'l transport xizmatidan samarali foydalanib kelmoqda. Bunga sabab Temir yo'l transporti boshqa transport xizmatlariga qaraganda arzon va xavfsiz imkoniyatlarga ega bo'lganligi uchun ham Temir yo'l transport xizmatlariga aholini yildan-yilga ehtiyoji ortib bormoqda. Temir yo'l transporti xizmatining ichida aholi

Date: 1st November-2025

tomonidan eng ko'p foydalanib kelinayotgan turlariga uzoq masofaga mo'ljallangan poyzdlar va metro xizmati kiradi.

Temir yo'l tashish sifatini baholash uchun ko'rsatkichlarni tanlashda yo'lovchi tashish xususiyatlarini, yo'lovchilarga bo'lgan talabni va temir yo'l transporti korxonasining imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Tranzit xizmatlari sifatini aniqlashga asoslanib, model temir yo'l xizmatlari sifatini baholash uchun ba'zi asosiy ko'rsatkichlarni taqdim etadi. Xususan, xavfsizlikni ta'minlash yo'lovchi tashish kompaniyasi uchun muhim masala bo'lib, yo'lovchilar ko'pincha o'z tajribalariga asoslanib xavfsizroq deb hisoblaydigan transport kompaniyasini tanlashadi. Shuningdek, bugungi kunda barcha yo'lovchilar toza transport turini tanlaydilar va bunga o'ta inijlik bilan yondashadilar.

Temir yo'l transporti orqali o'rtacha bir kunlik yuklarni jo'natish hajmi 198,1 ming tonnani tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga ortdi. Bir tonna yuk jo'natishning o'rtacha masofasi 339,9 km.ni tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davri ko'rsatkichi darajasidan 0,1 % ga kamaydi. Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, temir yo'l transporti yuk aylanmasi 11 979,1 mln. t-km, yo'lovchi aylanmasi 1 465,0 mln. yo'lovchi-km.ga teng bo'lgan. Temir yo'l transporti orqali o'rtacha bir kunlik yuklarni jo'natish hajmi 198,1 ming tonnani tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga ortdi. Bir tonna yuk jo'natishning o'rtacha masofasi 339,9 km.ni tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davri ko'rsatkichi darajasidan 0,1 % ga kamaydi.

Tahliliy ma'lumotlarga qarydigan bo'lsak, yo'lovchi tashish bozoridagi raqobatdoshligini oshirish natijasida shaharlararo aloqalarda umumbajariluvchi yo'lovchilar aylanmasida 25 % va shaharatrof yo'nalishlarida 16 % yo'lovchilarni temir yo'llar orqali tashish ko'zda tutilgan. Yo'lovchilar tashishni miqdorlarini belgilashda esa yo'lovchilar oqimining yo'nalishlari yil fasllari, shaharatrof yo'nalishida esa oy, kun va hatto soatlar bo'yicha taqsimlanishi, yo'lovchilar oqimini o'rganish natijalaridan foydalanib topiladi.

Yo'lovchi poyezdlari uch guruhga bo'linadi: - uzoqqa – 700 km dan ortiq masofalarga qatnovchi; - mahalliy – 150 dan 700 km gacha; - shaharatrof –150 km gacha bo'lgan masofalarga qatnovchi poyezdlarga bo'linadi. Bundan ko'rinadiki Temir yo'l transport xizmatida yo'lovchi tashishning iqtisodiy samaradorligini oshirish ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayon bo'lib, ularni tartibga solish uchun bir qator muammolarni tartibga solish lozim bo'ladi. Yo'lovchi tashish xizmati juda ham murakkab jarayon, chunki har bir mijozni xohish-istaklarini inobatga olish lozim. Mijozlarni har bir talabini o'rganish va yechimini amalga oshirish talab etiladi. Agar mijozlarni talablari hisobga olinmasa ularning iqtisodiy samaradorligi yuqori natijalarni bermaydi.

Mamlakatimizdagi temir yo'l transportida yo'lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan vagonlar sonini ko'paytirish va yangi xizmat turlarini joriy etish;



Date: 1st November-2025

- yo'lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish tizimini amaliyotga tatbiq etish;

- tashish xarajatlarni minimallashtirish va yo'lovchi hajmini oshirishga qaratilgan yangi imkoniyatlarni tatbiq etish;

- yo'lovchi tashish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga keng qo'llash;

- yo'lovchi tashish xizmatini amalga oshiradigan temir yo'l transport turlari ko'paytirish va amaliyotga joriy etish orqali yo'lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini kengaytirishga qaratilgan yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Yakunda aytish mumkinki, temir yo'l transportini isloh qilish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki u transport diplomatiyasi, xalqaro geosiyosiy manfaatlar va ekologik barqarorlik mezonlariga ham xizmat qiluvchi omil sifatida baholanishi lozim. Shu bois, ilg'or xorijiy tajribalarni tizimli o'rganish, mahalliy sharoitga moslashtirish va uzluksiz modernizatsiyani amalga oshirish orqali "O'ztemiryo'l" tizimi kelajakda butun Markaziy Osiyo transport uzelinig strategik markaziga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329- sonli Qarori, 2023-yil 10-oktyabr.
2. Xodjaev, S. (2021). Temir yo'l transporti va uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Khodjayev, A. (2020). Temir yo'l tizimining modernizatsiyasi va iqtisodiy samaradorlik. Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. Raxmonov G'.I. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili. "YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT" ijtimoiy, iqtisodiy ilmiy ommabop jurnal, 2024-yil, may. № 5-son, 557-562
5. Shorustamov A.Sh., Qobulov J.R., Jo'raboyev K.A., Egamberdiyev R.A. "Temir yo'l transporti asoslari", O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan temir yo'l sohasida tahsil olayotgan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun darslik TOSHKENT – 2017 yil, 29,69, 289, 299, 300 betlar.

